SCIENCE
PROBLEMS.UZ
ISSN: 2181-1342 (ONLINE)

№ S/4 (3) - 2023

# ИЖТИМОИЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

# АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

# ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

ЭЛЕКТРОН ЖУРНАЛ
ЭЛЕКТРОННЫЙ ЖУРНАЛ
ELECTRONIC JOURNAL

**ISSN:** 2181-1342 (Online)

**Сайт:** https://scienceproblems.uz

**DOI:** 10.47390/SP1342V3SI4Y2023

# SCIENCEPROBLEMS.UZ

## ИЖТИМОИЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

Махсус сон

***№ S/4 (3) – 2023***

## АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

## ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

**ТОШКЕНТ-2023**

**БОШ МУҲАРРИР:**

Исанова Феруза Тулқиновна

**ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ:**

*07.00.00-ТАРИХ ФАНЛАРИ:*

Юлдашев Анвар Эргашевич – тарих фанлари доктори, сиёсий фанлар номзоди, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Мавланов Уктам Махмасабирович – тарих фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Хазраткулов Аброр – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети.

*08.00.00-ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ:*

Карлибаева Рая Хожабаевна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Худойқулов Садирдин Каримович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Азизов Шерзод Ўктамович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Божхона институти;

Арабов Нурали Уралович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Холов Актам Хатамович – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Шадиева Дилдора Хамидовна – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент в.б, Тошкент молия институти;

Шакаров Қулмат Аширович – иқтисодиёт фанлари номзоди, доцент, Тошкент ахборот технологиялари университети

*09.00.00-ФАЛСАФА ФАНЛАРИ:*

Ҳакимов Назар Ҳакимович – фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Яхшиликов Жўрабой – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Ғайбуллаев Отабек Мухаммадиевич – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Ҳошимхонов Мўмин – фалсафа фанлари доктори, доцент, Жиззах педагогика институти;

Носирходжаева Гулнора Абдукаххаровна – фалсафа фанлари номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети.

*10.00.00-ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:*

Ахмедов Ойбек Сапорбаевич – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Кўчимов Шухрат Норқизилович – филология фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Салахутдинова Мушарраф Исамутдиновна – филология фанлари номзоди, доцент, Самарқанд давлат университети;

Кучкаров Рахман Урманович – филология фанлари номзоди, доцент в/б, Тошкент давлат юридик университети;

Юнусов Мансур Абдуллаевич –филология фанлари номзоди, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Саидов Улугбек Арипович – филология фанлари номзоди, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси.

*12.00.00-ЮРИДИК ФАНЛАР:*

Ахмедшаева Мавлюда Ахатовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Мухитдинова Фирюза Абдурашидовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Эсанова Замира Нормуротовна – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикасида хизмат кўрсатган юрист, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳамроқулов Баҳодир Мамашарифович – юридик фанлар доктори, профессор в.б., Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети;

Зулфиқоров Шерзод Хуррамович – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Жамоат хавфсизлиги университети;

Хайитов Хушвақт Сапарбаевич – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Асадов Шавкат Ғайбуллаевич – юридик фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси

Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Сайдуллаев Шахзод Алиханович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Амиров Зафар Актамович – юридик фанлар бўйича фалсафа октори (PhD), Ўзбекистон Республикаси Судьялар олий кенгаши ҳузуридаги Судьялар олий мактаби

*13.00.00-ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ:*

Хашимова Дильдархон Уринбоевна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ибрагимова Гулнора Хавазматовна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Закирова Феруза Махмудовна – педагогика фанлари доктори, Тошкент ахборот технологиялари университети ҳузуридаги педагогик кадрларни қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш тармоқ маркази;

Тайланова Шохида Зайниевна – педагогика фанлари доктори, доцент.

*19.00.00-ПСИХОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:*

Каримова Васила Маманосировна – психология фанлари доктори, профессор, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Ҳайитов Ойбек Эшбоевич – Жисмоний тарбия ва спорт бўйича мутахассисларни қайта тайёрлаш ва малакасини ошириш институти, психология фанлари доктори, профессор

Умарова Навбаҳор Шокировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети, Амалий психологияси кафедраси мудири;

Атабаева Наргис Батировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Қодиров Обид Сафарович – психология фанлари доктори (PhD), Самарканд вилоят ИИБ Тиббиёт бўлими психологик хизмат бошлиғи.

*22.00.00-СОЦИОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:*

Латипова Нодира Мухтаржановна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири;

Сеитов Азамат Пўлатович – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети;

Содиқова Шоҳида Мархабоевна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон халқаро ислом академияси

*23.00.00-СИЁСИЙ ФАНЛАР*

Назаров Насриддин Атақулович –сиёсий фанлар доктори, фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент архитектура қурилиш институти;

Бўтаев Усмонжон Хайруллаевич –сиёсий фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири.

**ОАК Рўйхати**

Мазкур журнал Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Олий аттестация комиссияси Раёсатининг 2022 йил 30 ноябрдаги 327/5-сон қарори билан тарих, иқтисодиёт, фалсафа, филология, юридик ва педагогика фанлари бўйича илмий даражалар бўйича диссертациялар асосий натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий нашрлар рўйхати (Рўйхатга) киритилган.

**Crossref DOI:**

Таҳририят Crossref DOI нинг расмий аъзоси ҳисобланади ва 10.47.390 DOI префиксига эга. Ҳар бир нашр ва илмий мақолага индивидуал Crossref DOI рақами берилади.

**Google Scholar**

Журнал Google Scholar (Академия) да индексацияланади.

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари** электрон журнали 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.
Муассис: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” масъулияти чекланган жамият.

**Таҳририят манзили:**
Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил: scienceproblems.uz@gmail.com
Телеграм канал: https://t.me/scienceproblems_uz

## *МУНДАРИЖА*

### 07.00.00 – ТАРИХ ФАНЛАРИ


*Аббасов Беҳзод Бахтиёрович*
1946 – 1965 ЙИЛЛАРДА ФАРҒОНА ВОДИЙСИДА ИРРИГАЦИЯ ВА МЕЛИОРАЦИЯ ИШЛАРИ ҲАМДА АҲОЛИНИ ЯНГИ ЎЗЛАШТИРИЛГАН ЕРЛАРГА КЎЧИРИШНИНГ БОШЛАНИШИ ........ 10-21

*Бабаджанов Хасан Бахтиёрович*
ИККИНЧИ ЖАҲОН УРУШИ ДАВРИДА ЎЗБЕКИСТОНДА ОЗИҚ-ОВҚАТ МАҲСУЛОТЛАРИ ТАЪМИНОТИДА ТОМОРҚА ХЎЖАЛИКЛАРИНИНГ ЎРНИ ........ 22-27

*Саидбобоева Гулзора Нематжоновна*
ГОЭЛРО РЕЖАСИ ВА УНИНГ ЎЗБЕКИСТОН ҲУДУДИДА АМАЛГА ОШИРИЛИШИ ........ 28-36

*Rasulov Ma'murjon Foziljonovich*
OʻZBEKISTONDA XALQARO SAYYOHLIKNI RIVOJLANTIRISHDA MADANIY MEROS OBYEKTLARINING OʻRNI ........ 37-42

*Жиянбекова Шарофат Абдикахаровна*
А.С. ПУШКИН НОМИДАГИ САМАРҚАНД ВИЛОЯТИ КУТУБХОНА МАРКАЗИНИНГ ТАШКИЛ ЭТИЛИШИ ВА ШАКЛЛАНИШИ ТАРИХИ ........ 43-51

*Esonov Ziyodbek Yuldashevich*
FARGʻONA VODIYSI QORAQALPOQLARI HUNARMANDCHILIGI TARIXIDAN ........ 52-58

*Фарманова Гульнара Комилевна*
ИЗ ИСТОРИИ ПЕРВЫХ АРХЕОЛОГИЧЕСКИХ РАБОТ И ИССЛЕДОВАНИЙ НА АФРАСИАБЕ ........ 59-65

*Turaev Sherzod Gulboy ugli*
DESCRIPTION OF CHARACTERISTICS AND TYPES OF LIVESTOCK FARMING OF SURKHAN OASIS IN B.H. KARMISHEVA RESEARCH ........ 66-71

*Сотиболдиев Ғайратжон Отамирзаевич*
ИНТЕРНЕТНИНГ ТАЪЛИМ ТИЗИМИГА КИРИБ КЕЛИШИ ТАРИХИ: МУАММО ВА ЕЧИМЛАР ........ 72-78

*Rasulov Azizkhon Mukhamadqodirovich*
ЎЗБЕКИСТОННИНГ МУСТАҚИЛЛИК ДАВРИ ТАРИХИ МАНБАЛАРИНИНГ УМУМИЙ ТАВСИФИ ........ 79-90

*Абдуллажанова Нигорахон Турдалиевна*
БЕРУНИЙ ВА ИБН СИНО ҲАЁТИ ВА ИЛМИЙ МЕРОСИ ТАРИХШУНОСЛИГИДАН ........ 91-95

*Дониёров Носиржон Абдухолиқ ўғли*
ЎЗБЕК ТИЛИ ВА ИМЛО СИЁСАТИДАГИ ЎЗГАРИШЛАР ТАРИХИДАН ........ 96-102


### 08.00.00 – ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ


*Юлдашев Обиддин, Махлиё Мамбетқулова*
ИСЛОМИЙ СУҒУРТА (ТАКАФУЛ) ВА УНИНГ ЎЗИГА ХОС ХУСУСИЯТЛАРИ ........ 103-109

*Фозилов Умид Закирович*
БОШҚАРУВ ХОДИМЛАРИ ФАОЛИЯТИНИ ОҚИЛОНА БАҲОЛАШ ТАШКИЛОТ БОШҚАРУВ ТИЗИМИ САМАРАДОРЛИГИНИНГ АСОСИ ........ 110-118

*Shoyev Davronbek Axmadjonovich*
BOSHQARISH SIFATINI OSHIRISHDA “MENEJMENT LABORATORIYASI”NI TASHKIL QILISHNING O‘RNI ........ 119-125

*Орзуқулова Зумрад Абдуҳолиқ қизи*
ТРАНСПОРТ-ЛОГИСТИКА ХИЗМАТЛАРИ САМАРАДОРЛИГИНИ ОШИРИШНИНГ ТАШКИЛИЙ-ИҚТИСОДИЙ МЕХАНИЗМЛАРИ ........ 126-133

*Djurakulov Shoxrux, Isaxonova Mohinur*
O‘ZBEKISTONDA RAQAMLI IQTISODIYOT VA UNI TAKOMILLASHTIRISH IMKONIYATLARI ........ 134-139

*Raxmatullayeva Feruza Azimovna, Sharobiddinov Ahrorbek Qosimjon o‘g‘li*
YALPI HUDUDIY MAHSULOT SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO‘LLARI ........ 140-146

*Ёдгорова Шахноза Хайридиновна*
ЎЗБЕКИСТОНДА ВА ХОРИЖИЙ МАМЛАКАТЛАРДА ТЎҚИМАЧИЛИК САНОАТИНИ РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ ЎЗИГА ХОС ТАЖРИБАЛАРИ ........ 147-155

*Qurbonov Ma’murjon G‘ayrat o‘g‘li*
ASOSIY ISHLAB CHIQARISH KO‘RSATKICHLARINI TAKOMILLASHTIRISH USLUBIYATI ........ 156-166

*Nurullayev Hoshimjon Hamidovich*
BUXORO VILOYATINING NOMODDIY-MADANIY MEROSONING O‘ZBEKISTON TURIZMI RIVOJLANISHIDAGI AHAMIYATI ........ 167-172

*Маматов Бахадир Сафаралиевич*
РИВОЖЛАНГАН ВА РИВОЖЛАНАЁТГАН МАМЛАКАТЛАРНИНГ ПЕНСИЯ ТАЪМИНОТИ ТИЗИМИ ТАЖРИБАЛАРИ ........ 173-188

*Ғойипназаров Санжар Баходирович*
ИНСОН КАПИТАЛИНИ РАҚАМЛИ РИВОЖЛАНТИРИШ ДРАЙВЕРЛАРИНИНГ ИНСТИТУЦИОНАЛ МОДЕЛИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ ........ 189-195

*Садинов Азиз Зиядуллайевич*
ЧИҚИНДИ МАҲСУЛОТЛАРИНИ ҚАЙТА ИШЛАШНИ ТАШКИЛ ЭТИШДА ТЕХНОЛОГИК ЖАРАЁНЛАРНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ ........ 196-203

*Қурбонова Рахима Жамшедовна, Мирзаева Ширин Нодировна, Хакимов Дамир*
ИЖТИМОИЙ КАПИТАЛНИ ЎЛЧАШДА ИЖТИМОИЙ ТАРМОҚЛАР ВА ТЕХНОЛОГИЯЛАРНИНГ РОЛИ ........ 204-216

*Asamxodjayeva Shoira Shukurullayevna, Maxmudov Muxammadqodir Muzaffar o‘g‘li*
YASHIL IQTISODIYOTNING MOHIYATI VA UNGA INVESTITSIYALARNI YO‘NALTIRISH ZARURIYATI ........ 217-222

*Исломов Алишер Бахтиёр ўғли*
БУХГАЛТЕРИЯ АУТСОРСИНГ ХИЗМАТЛАРИНИ КЎРСАТИШДА ПРОФЕССИОНАЛЛИКНИ ТАЪМИНЛАШ ........ 223-229

*Agzamova Nargiza Gapurovna*
SPECIFICS OF ETHNOGRAPHIC TOURISM AND ETHNIC TOURISM IN UZBEKISTAN ..... 230-237

*Муродова Дилноза Чориевна*
ТИЖОРАТ БАНКЛАРИНИНГ ФАОЛИЯТИНИ ТАРТИБГА СОЛИШ БЎЙИЧА ХОРИЖ ТАЖРИБАСИ ВА УНИНГ АМАЛИЙ АҲАМИЯТИ ........ 238-245

*Khodjaeva Shodiyabonu Abitdjanovna*
QISHLOQ XO'JALIGIDA AGROMARKETING TIZIMINING AHAMIYATI VA UNING FUNKSIYALARI ........ 246-250

**_09.00.00 – ФАЛСАФА ФАНЛАРИ_**

*Нуруллаева Зулхумор Сидаматовна*
МИЛЛИЙ ВА УМУМИНСОНИЙ МАДАНИЯТ ТИЗИМИДА МАҚОМ САНЪАТИНИНГ ЎРНИ ........ 251-259

*Ibroximov Sarvar Mo'ydinjon o'g'li*
IJTIMOIY-GUMANITAR VA MUTAXASSISLIK FANLARNI INNOVATSION PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA O'QITISH ORQALI TALABALARDA FUQAROLIK POZITSIYASINI TAKOMILLASHTIRISH ........ 260-265

*Yuldashev Ibroxim To'ychiyevich*
MOVAROUNNAHR VA XUROSONDA MINIATYURA SAN'ATINING ADABIYOT BILAN O'ZARO UYG'UNLIGI VA G'OYAVIY ESTETIK VA AXLOQIY TASAVVURLARINING MUSHTARAKLIGI ........ 266-271

*Khamdamova Sitora Safarovna*
MARKAZIY OSIYO XALQLARI TARIXIY TARAQQIYOTIDA KROSS-MADANIYATINING O'ZIGA XOSLIGI ........ 272-277

*Абдуллаев Джасур Абдиваит ўғли*
ФИЛОСОФСКИЙ АНАЛИЗ КЛАССИФИКАЦИИ КАЧЕСТВ СОВЕРШЕННОГО ЧЕЛОВЕКА ........ 278-283

**_10.00.00 – ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ_**

*Xasanov Akbarjon Abdurashidovich*
O'ZBEK TILSHUNOSLIGIDA MILLIY KONSEPTOSFERANI VOQELANTIRUVCHI LINGVISTIK BIRLIKLAR BO'YICHA AMALGA OSHIRILGAN TADQIQOTLAR ........ 284-292

*Qurbonova Muharram Jurabekovna*
XURSHID DAVRON SHE'RIYATINING TIL XUSUSIYATLARI ........ 293-297

*Сафарова Замира Рустамовна*
ИНГЛИЗЧА ФРАЗЕОЛОГИЗМЛАР ТАРКИБИДАГИ ИНСОН НОМЛАРИНИНГ ЭТИМОЛОГИК ТАСНИФИ ........ 298-304

*Gubaydullin Artur Faridovich*
THE NUANCES OF HUMOR TRANSLATION IN TERRY PRATCHETT'S 'GOOD OMENS' .... 305-313

*Tuxtayeva Dildora Zokirovna, Baxtiyorova Malikabonu Shavkat qizi*
ETEL LILIAN VOYNICHNING “SO‘NA” ASARIDA BOSH QAHRAMONLAR DINAMIKASI ... 314-318

*Seytnazarova Injayim Erjanovna*
TILEWBERGAN JUMAMURATOV ASARLARIDA UNDALMALARNING USLUBIY QO‘LLANILISHI ... 319-325

*Асадова Дилбархон*
ЎРХОН ПАМУҚНИНГ “ҚОРА КИТОБ” РОМАНИДА “ЎЗЛИКНИ ИЗЛАШ” МОТИВИ ..... 326-342

*Khusanov Eldor Davlat o‘g‘li*
BUYUK BRITANIYA VA AMERIKA INGLIZ SHEVALARINING O’XSHASH VA FARQLI JIHATLARI ... 343-348

## 12.00.00 – ЮРИДИК ФАНЛАР

*Утемуратов Махмут Ажимуратович*
ЖАМИЯТДА ҲУҚУҚИЙ ОНГ ВА ҲУҚУҚИЙ МАДАНИЯТНИ ЮКСАЛТИРИШ – ҲУҚУҚИЙ ДЕМОКРАТИК ДАВЛАТ БАРПО ЭТИШНИНГ МУҲИМ ОМИЛИ ... 349-355

*Шымбергенова Улзада*
ТЕРГОВ ҲАРАКАТЛАРИДА ВОЯГА ЕТМАНЛАРНИНГ ҲУҚУҚ ВА МАНФААТЛАРИНИ ҲИМОЯ ҚИЛИШДА ПЕДАГОГ (ПСИХОЛОГ)НИНГ РОЛИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ ... 356-362

*Полвонов Нажмиддин Аслиддинович*
ЖИНОЯТ ПРОЦЕССИДА МОЛ-МУЛКНИ МУСОДАРА ҚИЛИШ МАҚСАДИ ВА УНИНГ ЎЗИГА ХОС ЖИҲАТЛАРИ ТАҲЛИЛИ ... 363-372

*Мирзаев Шухрат Шавкатович*
КАТЕГОРИЯ «ДЕЙСТВИЕ ПРАВА»: ПОНЯТИЕ, СУЩНОСТЬ И ПРЕДЕЛЫ ... 373-382

*Муҳаммадиев Сарвар Асқар ўғли*
“ЖИНОЯТ НАТИЖАСИДА ЕТКАЗИЛГАН ЗАРАРНИ УНДИРИШДА РАҚАМЛАШТИРИШ ИМКОНИЯТЛАРИДАН САМАРАЛИ ФОЙДАЛАНИШ МАСАЛАЛАРИ” ... 383-392

*Махмудов Суннат Азим ўғли*
ЖИНОЯТ ИШИНИ ТУГАТИШ АСОСИ СИФАТИДА ЯРАШУВ ВА ХУСУСИЙ АЙБЛОВНИНГ ЎЗИГА ХОС ЖИҲАТЛАРИ ... 393-399

## 13.00.00 – ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ

*Farrux Axmedov*
XALQARO TAJRIBALAR ASOSIDA KURASHNI RIVOJLANTIRISH ... 400-409

*Музафарова Саодат Хайдаровна*
ЎРТА АСРЛАР ШАРҚ АЛЛОМАЛАРИ МАЪНАВИЙ МЕРОСИДА МУСИҚА ВА УНИНГ ЭСТЕТИК АҲАМИЯТИ ... 410-415

*Xaydarova Iroda Nizomiddinovna*
BO'LAJAK INGLIZ TILI O'QITUVCHILARI TALAFFUZINI TAKOMILLASHTIRISH NUQTAYI NAZARIDAN 2020-2021 O'QUV YILI FAN DASTURLARI VA MATERIALLARI TAHLILI ... 416-421

*Шукурова Нафиса Алишеровна*
ЗАМОНАВИЙ ВОЛЕЙБОЛГА ХОС ҲИМОЯ ҲАРАКАТЛАРИНИ МОДЕЛЛАШТИРИЛГАН ТАРТИБДА ШАКЛЛАНТИРИШ ... 422-427

*Nigmanov Bori Botirovich*
FUTBOLCHILARNI TAKTIK TAYYORLASHDA HARAKATLI O'YINLARNING AHAMIYATI ... 428-433

*Муродова Дурдона Раимжон қизи*
БЎЛАЖАК МУСИҚА ТАЪЛИМИ ЎҚИТУВЧИЛАРИНИНГ БАДИИЙ-ЭСТЕТИК КОМПЕТЕНТЛИГИНИ РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ ИННОВАЦИОН ПЕДАГОГИК ТЕХНОЛОГИЯСИ ... 434-438

*Axmedov Alisher Nosir o'g'li*
ANSAMBL BILAN ISHLASH METODLARI VA TAMOYILLARI ... 439-447

*Saparboyeva Dilshoda Sobir qizi*
BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARIDA INSON QADRINI ULUG'LASH MADANIYATINI RIVOJLANTIRISH MEXANIZMLARI ... 448-452

*Mansurbekova Feruza Gayratovna*
BOLALAR XORLARI BILAN ISHLASHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI ... 453-456

*Xodjayev Bolta Qurbonovich, Xojiyeva Matluba Shukurovna*
O'QITUVCHI MEHNATNI ILMIY ASOSDA TASHKIL ETISH YO'LLARI ... 457-465

*Atamuratova Munira*
O'ZBEK GURUHLARIDA INGLIZ TILINI XORIJIY TIL SIFATIDA O'QITISHDA MADANIY ASPEKTDAN FOYDALANISHGA OID ZAMONAVIY YONDASHUVLAR VA INTERFAOL METODLAR TAVSIFI ... 466-471

*Нурилло Эминов*
ХОРАЗМ ДОСТОНЛАРИНИНГ МОҲИР ИЖРОЧИСИ ОТАХОН МАТЁҚУБОВНИНГ ИЖОДИГА БИР НАЗАР ... 472-476

SCIENCE PROBLEMS.UZ

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари. -№ S/4 (3)-2023.**
**ISSN: 2181-1342 (Online)**
**https://scienceproblems.uz**

*13.00.00 – Педагогика фанлари*

**Atamuratova Munira**
Toshkent Tibbiyot Akademiyasi Termiz filiali oʻqituvchisi
E-mail: munira.atamuratova.91@gmail.com

## OʻZBEK GURUHLARIDA INGLIZ TILINI XORIJIY TIL SIFATIDA OʻQITISHDA MADANIY ASPEKTDAN FOYDALANISHGA OID ZAMONAVIY YONDASHUVLAR VA INTERFAOL METODLAR TAVSIFI

**Annotatsiya.** Ingliz tilini xorijiy til sifatida oʻqitishda, nutqiy kompetentsiyalarni rivojlantirishda madaniy aspektdan foydalanish va ungaoidzamonaviy yondashuvlar va interfaol metodlar muhim ahamiyatga ega. Ushbu maqolada oʻzbek guruhlarida ingliz tilini xorijiy til sifatida oʻqitishda madaniy aspektdan foydalanishga oid zamonaviy yondashuvlar va metodlar tavsifi hamda oʻzbek guruhlarida ingliz tilini xorijiy til sifatida oʻqitishda metodik ta'minot yaratish masalalari keng yoritilgan. Oʻzbek guruhlarida ingliz tilini xorijiy til sifatida oʻqitishga oid mashq va topshiriqlar ishlab chiqilgan boʻlib, amaliyotga tatbiq etilishi, shaxsga yoʻnaltirgan ta'limni tashkil etish va ta'limda shaffoflikka erishish, ingliz tilini oʻqitishda madaniy aspektdan foydalanishning metodik asoslari moslashuvchanlikni kuchaytirishi muhim ahamiyat kasb etadi.

**Kalit soʻzlar:** interfaol metod,bilish, tushunish,pedagogik texnologiya, madaniy va pragmatik aspekt, innovatsion usul.

**Атамуратова Мунира**
Преподаватель Термезского филиала Ташкентской медицинской академии
Электронная почта: munira.atamuratova.91@gmail.com

## СОВРЕМЕННЫЕ ПОДХОДЫ И ИНТЕРАКТИВНЫЕ МЕТОДЫ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ КУЛЬТУРИСТИЧЕСКОГО АСПЕКТА В ОБУЧЕНИИ АНГЛИЙСКОМУ ЯЗЫКУ КАК ИНОСТРАННОМУ В УЗБЕКСКИХ ГРУППАХ

**Аннотация.** В обучении английскому языку как иностранному важно использование культурологического аспекта и современных подходов и интерактивных методов в развитии речевых компетенций. В данной статье рассматриваются современные подходы и методы, связанные с использованием культурологического аспекта при обученииианглийскому языку как иностранному в узбекских группах, а также вопросы создания методического обеспечения при обучении английскому языку как иностранному в узбекских группах. широко покрыты. В узбекских группах разработаны, внедрены в практику упражнения и задания, связанные с преподаванием английского языка как иностранного, организацией персонализированного обучения и прозрачности в обучении, использованием культурологического аспекта в обучении английскому языку.

**Ключевые слова:** интерактивный метод, знание, понимание, педагогическая технология, культурно-прагматический аспект, инновационный метод..

**Atamuratova Munira**
Teacher of the Termiz branch of the Tashkent Medical Academy

E-mail: munira.atamuratova.91@gmail.com

# DESCRIPTION OF MODERN APPROACHES AND INTERACTIVE METHODS OF USING THE CULTURAL ASPECT IN TEACHING ENGLISH AS A FOREIGN LANGUAGE IN UZBEK GROUPS

**Abstract.** In teaching English as a foreign language, the use of the cultural aspect and modern approaches and interactive methods are important in the development of speech competences. In this article, the description of modern approaches and methods related to the use of the cultural aspect in teaching English as a foreign language in Uzbek groups, as well as the issues of creating methodical support in teaching English as a foreign language in Uzbek groupsare widely covered. In Uzbek groups, exercises and tasks related to teaching English as a foreign language were developed, put into practice, organization of personalized education and transparency in education, use of the cultural aspect in teaching English.

**Keywords:** interactive method, knowledge, understanding, pedagogical technology, cultural and pragmatic aspect, innovative method.

DOI: https://doi.org/10.47390/SP1342V3SI4Y2023N60

**Kirish.** Hozirgi kunda xorijiy tillarni oʻrganish va oʻqitishda yurtimizda katta ahamiyat berilmoqda. 2012 yil 10-dekabrda qabul qilingan “Chet tillarini oʻrgatish tizimini yanada takomillashtirish chora tadbirlari toʻgʻrisida” [1] gi Prezident Qarori chet tillarini oʻrganish imkoniyatlarini kengaytirdi. Respublikamizda chet tilining oʻqitilishi, xorijiy tili oʻqituvchilarining bilim va koʻnikmalarini baholashning umumyevropa mamlakatlari tavsiyanomalari (CEFR, IELTS, PIRLS, PISA)ga mos ravishda yangi usul va talablari ishlab chiqildi. Unga koʻra umumta’lim maktablari va kasb-hunar kollejlari oʻquvchilari uchun darsliklar, oʻquv materiallari yaratilmoqda. Chet tili oʻrganishga boʻlgan talab ham kundan kunga oshib bormoqda. Chet tili fani toʻrt aspektga (oʻqish, yosh, tinglab tushunish va gapirish) boʻlinib, ularning har biri boʻyicha alohida tushuncha, malaka va koʻnikmalar berilmoqda.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Respublika miqyosida oliy ta’lim muassasalarida innovatsion texnologiyalardan foydalangan holda yangi texnologiyada oʻqitish orqali chet tili ta’limi sifatini oshirish muammolariga oid ilmiy ishlarda, jumladan, A.Abduqodirov, L.Golish, R.Djurayev, R.Ishmuxamedovlar tomonidan zamonaviy texnologiyalarga alohida ta’rif berilgan, [2] J.Jalolov, N.Muslimov, M.Usmonboyeva va boshqalar tomonidan pedagogik texnologiyalar boʻyicha egallangan bilim, koʻnikma va malakalarni amaliyotda qoʻllash masalalari oʻrganilgan, N.Azizxodjayeva, N.Saydaxmedov, A.Xodjaniyazova va boshqalarning ishlarida pedagogik mahoratni namoyon etish usullari batafsil tadqiq etilgan. Mustaqil Davlatlar Hamdoʻstligi (MDX) mamlakatlari olimlaridan К.Ангеловский, V.Bespalko, T.Vasilyeva, V.Monaxov, Z.Slastyonin, B.Shadrikov kabi olimlar tomonidan oʻqitishning zamonaviy usullari boʻyicha ilmiy izlanishlar olib borilgan. Xorijlik olimlardan Dj. Dyui, X. Keyrns, Sssyur de F, H.D.Brown, Gardner, R.C and Lambert, Domyei Zolton, J.Hammond, P.Mehisto, D. Marsh, M. J Frigols kabi olimlar tomonidan ilgʻor pedagogik texnologiyalardan foydalanish, muammoli ta’lim masalalari atroflicha oʻrganilgan.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Bugungi kunda komputer texnologiyalarsiz til oʻrganish va oʻrgatishni tasavvur eta olmaymiz. Shu bilan birga oʻqituvchi endilikda barcha ma’lumotlarni tushuntirib an’anaviy yoʻsinda dars tashkil etmay balki, faqat koʻrsatma va tushuntirib oʻrganuvchilarni mustaqil izlanishiga imkon yaratadi. Bu oʻz oʻrnida ta’lim jarayonida noodatiy

innovatsion interfaol topshiriqlar tizmini hamda dars tashkil etishni talab etadi.Interfaol topshiriqlar qoʻllanganda farqli ravishda talabalarning bellashuv, raqobat, tortishuv ruhiyatini intellektual faolligiga kuchli taʼsir etadi. Bu insonlar uyushgan holda muammo yechimini izlaganlarida namoyon boʻladi. Quyida interfaol metod va topshiriqlarni anʼanaviy taʼlim jarayonidan farqi hamda samarali jihatini alohida koʻrib chiqamiz.

Interfaol metod va topshiriqlarning taʼlim va tarbiya jarayonidagi oʻrni va imkoniyatlari:

Interfaol metod – taʼlim jarayonida talabalarning hamda oʻqituvchi oʻrtasidagi faollikni oshirish orqali talabalarning bilimlarni oʻzlashtirishini faollashtirish, shaxsiy sifatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi. [3] Interfaol taʼlimning asosiy mezonlari: norasmiy bahs-munozaralar oʻtkazish, oʻquv materialini erkin bayon etish va ifodalash imkoniyati, maʼruzalar soni kamligi, lekin seminarlar soni koʻpligi, oʻquvchilar tashabbus koʻrsatishlariga imkoniyatlar yaratilishi, kichik guruh, katta guruh, sinf jamoasi boʻlib ishlash uchun topshiriqlar berish, yozma ishlar bajarish va boshqa metodlardan iborat boʻlib, ular taʼlim-tarbiyaviy ishlar samaradorligini oshirishda oʻziga xos ahamiyatga ega.

Interfaol mashgʻulot samaradorligi sabablari: Hozirda taʼlim metodlarini takomillashtirish sohasidagi asosiy yoʻnalishlardan biri interfaol taʼlim va tarbiya usullarini joriy qilishdan iborat. Barcha fan oʻqituvchilari dars mashgʻulotlari jarayonida interfaol usullardan borgan sari kengroq foydalanmoqdalar. Bu usullarni qoʻllash natijasida talabalarning mustaqil fikrlash, tahlil qilish, xulosalar chiqarish, oʻz fikrini bayon qilish, uni asoslagan holda himoya qila bilish, sogʻlom muloqot, munozara, bahs olib borish koʻnikmalari shakllanib, rivojlanib boradi. Bu masalada Amerikalik psixolog va pedagog B. Blum bilish va emotsional sohalardagi pedagogik maqsadlarning taksonomiyasini yaratgan va bu B. Blum taksonomiyasi deb nomlanadi [4] (Taksonomiya-borliqning murakkab tuzilgan sohalarini tasniflash va sistemalashtirish nazariyasi). U tafakkurni bilish qobiliyatlari rivojlanishiga muvofiq ravishdagi oltita darajaga ajratdi. Unga koʻra tafakkurning rivojlanishi bilish, tushunish, qoʻllash, tahlil, umumlashtirish, baholash darajalarida boʻladi. Shu har bir daraja quyidagi belgilar hamda har bir darajaga muvofiq feʼllar namunalari bilan ham ifodalanadi, jumladan: Bilish-dastlabki tafakkur darajasi boʻlib, bunda oʻquvchi atamalarni ayta oladi, aniq qoidalar, tushunchalar, faktlar va shu kabilarni biladi. Bu tafakkur darajasiga muvofiq feʼllar namunalari: qaytara bilish, mustahkamlay olish, axborotni etkaza olish, aytib bera olish, yozish, ifodalay olish, farqlash, taniy olish, gapirib berish, takrorlash. Tushunish darajasidagi tafakkurga ega boʻlganda esa, oʻquvchi faktlar, qoidalar, sxema, jadvallarni tushunadi. [4] Mavjud maʼlumotlar asosida kelgusi oqibatlarni taxminiy tafsiflay oladi. Bu tafakkur darajasiga muvofiq feʼllar namunalari: asoslash, almashtirish, yaqqollashtirish, belgilash, tushuntirish, tarjima qilish, qayta tuzish, yoritib berish, sharhlash, oydinlashtirish. Qoʻllash darajasidagi tafakkurda oʻquvchi olgan bilimlaridan faqat anʼanaviy emas, noaʼnanaviy holatlarda ham foydalana oladi va ularni toʻgʻri qoʻllaydi. Bu tafakkur darajasiga muvofiq feʼllar namunalari: joriy qilish, hisoblab chiqish, namoyish qilish, foydalanish, oʻrgatish, aniqlash, amalga oshirish, hisob-kitob qilish, tatbiq qilish, hal etish.Tahlil darajasidagi tafakkurda oʻquvchi yaxlitning qismlarini va ular oʻrtasidagi oʻzaro bogʻliqliklarni ajrata oladi, fikrlash mantiqidagi xatolarni koʻradi, faktlar va oqibatlar orasidagi farqlarni ajratadi, maʼlumotlarning ahamiyatini baholaydi. Bu tafakkur darajasiga muvofiq feʼllar namunalari: keltirib chiqarish, ajratish, tabaqalashtirish, tasniflash, taxmin qilish, bashorat qilish, yoyish, taqsimlash, tekshirish, guruhlash.

Umumlashtirish darajasidagi tafakkurda talabalarning ijodiy ish bajaradi, biror tajriba oʻtkazish rejasini tuzadi, birnechta sohalardagi bilimlardan foydalanadi. Maʼlumotni yangilik yaratish uchun ijodiy qayta ishlaydi. Bu tafakkur darajasiga muvofiq feʼllar namunalari: yangilik yaratish, umumlashtirish, birlashtirish, rejalashtirish, ishlab chiqish, tizimlashtirish, kombinastiyalashtirish, yaratish, tuzish, loyihalash. Bu tafakkur darajasiga muvofiq feʼllar namunalari: tashxislash, isbotlash, oʻlchash, nazorat qilish, asoslash, maʼqullash, baholash, tekshirish, solishtirish, qiyoslash.Interfaol usullar koʻp turli boʻlib, ularning hammasi ham har qanday progressiv usullar kabi eng avvalo, oʻqituvchidan dars mashgʻulot oldidan katta tayyorgarlik koʻrishni talab qiladi.

**Tahlil va natijalar.** Shu mashgʻulotlarni tashkil etishda interfaol darsning asosiy xususiyatlarini uning anʼanaviy darsga nisbatan ayrim farqlarini koʻrib chiqish orqali yaqqolroq idrok etish mumkin. Shu maqsadda quyidagi jadvalni keltiramiz:

**Anʼanaviy hamda interfaol dars orasidagi farqlar**

| № | Asosiy tushunchalar | Anʼanaviy dars | Interfaol dars |
|---|---|---|---|
| 1 | Qoʻllanish darajasi | Barcha mavzular boʻyicha qulay boʻlgan dars turlari shaklida qoʻllaniladi. | Ayrim mavzular boʻyicha interfaol darsning qulay boʻlgan turlari shaklida qoʻllaniladi. Boshqa mavzular uchun anʼanaviy dars qoʻllaniladi |
| 2 | Dars maqsadi | Dars mavzusi boʻyicha bilim, koʻnikma, malakalarni shakllantirish, mustahkamlash. | Dars mavzusi boʻyicha mustaqil fikrlash, xulosaga kelish, ularni bayon qilish, himoyalashni oʻrgatish. |
| 3 | Oʻqituvchining vazifalari va ish usullari | Yangi mavzuni tushuntirish, mustahkamlash, topshiriqlar berish. | Talabalarning mustaqil ishlashlarini va taqdimotlarini tashkil qilish,boshqarish, nazorat, yakuniy xulosalarni asoslab berish. |
| 4 | Darsga tayyorgarlikka talablar | Dars rejasi, konspekt va didaktik vositalarni tayyorlash. | Interfaol dars ishlanmasi, mustaqil ishlar uchun topshiriqlar, tarqatma materiallar, boshqa zarur vositalarni tayyorlash. |
| 5 | Talabalarning tayyorgarligiga talablar | Oʻtilgan dars boʻyicha vazifalarni bajarib kelish. | Yangi dars mavzusi boʻyicha asosiy tushunchalarni va dastlabki maʼlumotlarni bilish. |
| 6 | Talabalarningva zifalari vaish usullari | Oʻqituvchini tinglash va oʻzlashtirish, berilgan topshiriqlarni bajarish. | Oʻqituvchi bergan topshiriqlarni bajarish boʻyicha mustaqil fikrlash, oʻz fikr, xulosalarini boshqalarga solishtirish va yakuniy xulosaga kelish |

| | | | |
|---|---|---|---|
| 7 | Vaqt taqsimoti | Dars vaqtining koʻp qismi oʻqituvchining yangi mavzuni tushuntirishi, tahlil qilishi, topshiriqlar vaoʻzlashtirishni nazorat qilishiga sarflanadi. | Dars vaqtining koʻp qismi oʻquvchilarning mustaqil topshiriqlarni bajarishi, fikr almashishi, mushohada qilishi, oʻz xulosalarini bayon qilishi va himoyalashiga sarflanadi. |
| 8 | Darsning modul va algoritmlari | Darsning modul va algoritmlaridan har bir oʻqituvchi oʻzining metodiga koʻra foydalanadi. | Har bir dars oldindan tayyorlangan modullar va algoritmlarga, loyihalarga muvofiq oʻtkaziladi. |
| 9 | Oʻquvchilardan talab qilinadigan faollik darajasi | Oʻqituvchi har tomonlama faol, talabalarning diqqatni jamlash, tushunish, fikrlash, topshiriqni bajarish boʻyicha faol.Muloqot shakllari:oʻqituvchi-guruh; oʻqituvchi- talaba; talaba-oʻqituvchi; guruh-oʻqituvchi; | Oʻqituvchi ham, oʻquvchilarham har tomonlama faol. Hamkorlik, hamijodkorlik shakllari: Talabalarning-kichik guruh; oʻqituvchi- kichik guruh-oʻqituvchi;guruh-oʻqituvchi. |
| 10 | Bilimlarni oʻzlashtirishning asosiy usullari | Muloqot, muhokama, bahs, munozara, tahlil,mulohaza, mutolaa,mushohada, va boshqalar. | Muloqot, mutolaa, mushohada, muhokama, muzokara, bahs, munozara, mulohaza, tahlil va boshqalar. |
| 11 | Mashgʻulot shakllari | Maʼruza, seminar, amaliy mashgʻulot, davra suhbati, bahs, munozara, konsultastiya va boshqalar. | Maʼruza, guruh yoki juft boʻlib ishlash, taqdimotlar, bahs, munozara, davra suhbati, amaliy ishlar va boshqalar. |
| 12 | Kutiladigan natija | Mavzu boʻyicha talabalarning bilim, koʻnikma, malakalarini oʻzlashtirishlari. | Mavzu boʻyicha oʻquvchilarning oʻz fikr, xulosalarini shakllantirish, ularni mustaqil bilim olishga oʻrgatish. |

Bu jadvalda fikr juda qisqa bayon qilingan. Jadvalda keltirilgan farqlar shu ikki dars mashgʻulot turining bir-biriga nisbatan afzal va kamchilik tomonlarini yaqqol koʻrsatib turibdi.

**Xulosa.** Interfaol mashgʻulotning yuqorida jadvalda koʻrsatilgan ayrim jihatlarini tahlil qilish asosida quyidagi xulosalarga kelish mumkin: [5]

1. Oʻquv rejadagi fanlarni oʻqitishda qaysi mavzular boʻyicha interfaol darslar tashkil qilish maqsadga muvofiqligini hisobga olish zarur. Bunda har bir mavzu boʻyicha mashgʻulotning maqsadiga toʻliq erishishni taʼminlaydigan interfaol yoki anʼanaviy mashgʻulot turlaridan foydalanish koʻzda tutiladi;
2. Interfaol mashgʻulotning samarali boʻlishi uchun talabalarning yangi mashgʻulotdan oldin uning mavzusi boʻyicha asosiy tushunchalarni va dastlabki maʼlumotlarni bilishlarini taʼminlash zarur;

Interfaol mashgʻulotda oʻquvchilarning mustaqil ishlashlari uchun anʼanaviy mashgʻulotga nisbatan koʻp vaqt sarflanishini hisobga olish zarur.

## Adabiyotlar/Литература/References:

1. Ambrose, S., Bridges, M., Lovett, M., DiPietro, M., & Norman, M. (2010). How learning works: 7 research-based principles for smart teaching. San Francisco, CA: Jossey Bass.
2. Bekmuratova U. B. “Ingliz tilini oʻqitishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish” mavzusida referat –Toshkent,-2012 yil
3. Otaboyeva M.R. Chet tilini oʻqitishda zamonaviy innovatsion texnologiyalaridan foydalanish va uning samaradorligi/M. Р. Отабоева. -Текст: непосредственный, электронный//Молодойученый. -2017. -№ 4.2(138.2). -С.36–37.
4. N.Q.Xatamova, M.N.mirzayeva. “Ingliz tili darslarida qoʻllaniladigan interfaol usullar” (uslubiy qoʻllanma), Navoiy, 2006, 40 bet.
5. M. Xoldorova, N. Fayziyeva, F. Rixsittilayeva. “Chet tilini oʻqitishda yordamchivositalardan foydalanish” -Toshkent: Nizomiy nomidagi TDPU, 2005 Sh.K Shayakubov, R.X Ayubov “Interfaol ta’lim usullari” oʻquv uslubiy qoʻllanma.

**ISSN:** 2181-1342 (Online)
**Сайт:** https://scienceproblems.uz
**DOI:** 10.47390/SP1342V3SI4Y2023

# SCIENCEPROBLEMS.UZ

## ИЖТИМОИЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

Махсус сон

*№ S/4 (3) – 2023*

## АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

## ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари”** электрон журнали 2020 йил 6 август куни 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.

**Муассис**: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” масъулияти чекланган жамият

**Таҳририят манзили:**

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил: scienceproblems.uz@gmail.com

**Боғланиш учун телефонлар:**

(99) 602-09-84 (telegram).